

**TARBIYA JARAYONIDA OILA, MAHALLA HAMDA TA'LIM
MUASSASALARINING HAMKORLIGINI YO'LGA QO'YISH SHAKL VA
METODLARI**

*Matyakupova Farida Qadirbayevna
Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani
Politexnikumi tarbiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalashda oila, mahalla hamda ta'lismuassasasi hamkorligini ta'minlash samarasi haqida qayd etilgan. Shuningdek, yosh avlodga tarbiya berishda oila, mahalla va ta'lismuassasalarining o'rni va hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, konsepsiya, oila, mahalla, muktab, hamkorlik, farzand, munosabat

KIRISH

Yoshlarni tarbiyalashdek buyuk ishga Prezidentimizning ta'lismohasiga alohida e'tiborlarini qaratganliklari har bir fan o'qituvchisidan o'z faoliyatiga jiddiy yondashishini talab etmoqda. Davlatimiz rahbarining qator qarorlari asosida yoshlar bilan ishslash negizida mahalla muktab va oilaning o'rni haqida fikr yuritilgan. O'zbekistonda sog'lom avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-ta'lismuassasasi hamkorligini ta'minlash samaralarining garovidir. Bu borada hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ustuvor yo'naliishlar quyidagilardan iboratdir:

Oila, mahalla, ta'lismuassasalari hamkorligini ta'minlashning huquqiy bazasini takomillashtirish, hamkorlikning kuchayishiga qaratilgan uslubiy ta'minotni mustahkamlash; Oilada yoshlar va ota-onalarning ijtimoiy faolligini oshirish; O'quvchi yoshlarga ta'lism berish, ularni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni qiziqishlari bo'yicha kasbga yo'naltirish; Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash; Voyaga yetmagan o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va nazoratsizlikning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish; Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan shugullanishga keng jalb etish orqali sog'lom oilaga tayyorlash; Barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni mazmunan takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish mexanizmini yaratish; Sog'lom avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 1993-yilda ishlab chiqilgan Oila, mahalla, ta'lif muassasalari hamkorligi Konsepsiysi asosida umumta'lif maktablari bilan o'zini o'zi boshqarish organlari va oilalar o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu esa yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, o'quvchilarda qiziqishini, iste'dodini, qobiliyatini rivojlantirishda xizmat qilib kelmoqda. Hozirgi kunda "Oila, mahalla, ta'lif muassasalari hamkorligi oilalardagi axloqiy muhitni yaxshilab ularda tarbiyalanayotgan farzandlarni zamon talablari asosida hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim rol sanalmoqda. Bu —oila, mahalla, maktab hamkorligi bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi; shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish, Oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasining asosiy maqsadidir.

ADABIYOTLAR TAHЛИI

Jamiyat mavjudligi mana shu oilaga tayanishi hech kimga sir emas. Oila jamiyatning ajralmas zarur qismidir. Unda inson dunyoga keladi. Shu paytda oila insoniyatning uzluksiz naslini davom ettiruvchi bo`lib qolaveradi. Shundan kelib, oila ikkita ulkan ijtimoiy vazifani farzandlarni dunyoga keltirish hamda ularga to'g'ri tarbiya berishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Chunki oilada katta yoki kichik narsa bo'lmaydi. Hamma narsa, hatto eng oddiy bo`lib ko'ringan oilaviy munosabatlar bolaga katta ta`sir ko`rsatadi. Shunga muvofiq —Oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida oilaning quyidagi vazifalari belgilab qo'yilgan:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-onalarga har tomonlama o`rnak bo`lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vataniga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o`zaro g`amxor bo`lishni ta'minlash;
- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;
- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatlari kishilar bo`lib yetishishlarini ta'minlash;
- bozor munosabatlariga mos bo`lgan kasb-hunar o`rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;
- bolalarining ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo`lishlari uchun iqtisodiy muhitni yaratish;

-bolalarni mustaqil fikrlashga o`rgatish; istiqlol g`oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruvida tarbiyalash;

-bolalarning bo`sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo`shimcha ta`lim berish;

-farzandlariga mavjud bo`lgan iste`dod kurtaklarini yaratish;

- o`z farzandlarining mактаб, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to`la ado etishlari uchun oilada mas`uliyatli bo`lish;

-oila, mактаб va mahalla oldida o`z farzandlarining barcha xatti-harakatlari uchun javobgardir;

sog`ligida va aqlida nuqsonlari bo`lgan farzandlarga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasbkorlik berishdan iborat.

NATIJA VA MUHOKAMA

Xabaringiz bor, “Oila, mahalla va ta`lim muassasasi” hamkorligi doirasida mahallalarda turli tadbirlar, sport musobaqalari, turli to`garaklar faoliyatları yo`lga qo`yilib ularda ko`plab yoshlar o`z qiziqishlaridan kelib chiqib faol qatnashmoqdalar. Xususan, Jizzax davlat pedagogika universiteti ham ushbu hamkorlik doirasida universitetga biriktirilgan mahallalarda sezilarli ishlarni amalga oshirib, uyushmagan yoshlarni bo`sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo`yicha chora-tadbirlar asosida qator tadbirlarni o`tkazib kelmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri Jizzax davlat pedagogika universitetiga biriktirilgan “Zargarlik” MFYda joylashgan maktabgacha ta`lim muassasasida o`tkazildi. Shundan so`ng, universitetimiz talabalari bolajonlar uchun o`zлari tayyorlagan chet tillaridagi sahna ko`rinishlari va kuy-qo`shiqlarni namoyish etdilar. Ushbu tadbirda nafaqat maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyalanuvchilari balki “Zargarlik” MFYda yashovchi kichik yoshdagi bolalar ham ishtirok etdilar.

O`quvchilarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo`lib ular quydagilardir:

-oilada sog`lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-onalarini har tomonlama o`rnak bo`lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg`usini shakllantirish, o`zaro g`amxo`r bo`lishni ta`minlash;

-oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a`zolarining o`z huquq va burchlarini anglab etishlarini va ularga rioya qilishlarini ta`minlash;

-farzandlariga chuqr dunyoviy bilim asoslarini berish, ma`rifatli va ma`naviyatli kishilar bo`lib etishishlarini ta`minlash;

-bozor munosabatlariga mos bo`lgan kasb-hunar o`rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;

-shaxslarning ma`naviy barkamol va jismonan sog`lom bo`lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

-o‘z farzandlarining o‘quv muassasasi, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to‘la ado etishlari uchun oilada mas’uliyatli bo‘lish;

-ota-onalar o‘zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;

- shaxslarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma’naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish;

—oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini uyg‘un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas’ullikni ta’minlash;

—sanitariya-gigienik, ekologik ko‘nikmalarini singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;

—oila, o‘quv bilim yurti va mahalla oldida o‘z farzandlarining barcha xatti-harakatlari uchun javobgardir;

—sog‘ligida va aqlida nuqsonlari bo‘lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o‘rgatishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta’lim muassasalarining hamkorligini yo‘lga qo‘yish uchun bir necha shakl va metodlar mavjud:

1. Ko‘z o‘ngida turuvchi tadbirlar: Oilalar, mahallalar va ta’lim muassasalarining birgalikda olib boradigan tadbirlar va faoliyatlar orqali hamkorlikni kengaytirish mumkin. Masalan, oila kuni tashkil etish, oila va mahalla tanishuvlari, ota-onalar uchun ta’lim dasturlari o‘tkazish kabi tadbirlar bu yo‘l bilan hamkorlikni kuchaytirishga yordam beradi.
 2. Ko‘mak va maslahatlar: Oila, mahalla va ta’lim muassasalarining bir-biriga ko‘mak qilishi va maslahatlar berishi hamkorlikni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Masalan, ota-onalar shaxsiy va oilaviy muammollarni hal qilishda mahalla psixologlaridan yordam olishlari yoki ta’lim muassasasining o‘quvchilari uchun oilaviy qo‘llanma tuzishda ota-onalar bilan ishlashlari bu yo‘l bilan hamkorlikni oshirishga yordam beradi.
 3. Ko‘p tomonlama yondashuv: Oilalar, mahallalar va ta’lim muassasalari o‘rtasida ko‘p tomonlama yondashuvni kengaytirish uchun ko‘p tomonlama jismoniy faoliyatlar, sport tadbirlari, ijtimoiy tadbirlar o‘tkazish mumkin. Bu tadbirlar orqali birgalikda ish qilish va do‘sstar bilan aloqani kuchaytirish mumkin.
 4. Oila markazli dasturlar: Ta’lim muassasalari oila markazli dasturlar tuzib, ota-onalar bilan ishslash va oilaviy aloqalarni kuchaytirish uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin. Bu dasturlar oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, o‘quvchilarning oila bilan aloqasini mustahkamlashga yordam beradi.
- Bu shakl va metodlar hamkorlikni kuchaytirishda yordam beradi va oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi munosabatlarni kuchaytirib, barcha tomonlarga foydali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tolipov O‘, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot- T: Fan, 2005-206 b.
1. 2.R. Mavlonova, K. Xoliqberdiyev, "Pedagogika". T: "O‘qituvchi nashriyoti". 2002
2. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish.T.: "Fan", 2009.-168 b.
3. Ro‘ziyeva D.I, Xodjayev B.X Umumiyl pedagogika (fan dasturi). -Toshkent 2018- 20 b.
4. 5.Вульфов Б.З. Харькин В.Н. Педагогика рефлексии. Взгляд на профессиональную подготовку учителя М.: Магистр. 1995. 112